



The role of the national customs, traditions and values of our people in youth education

Sharofiddin SHOMUROTOV¹

Kokand State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2024
Received in revised form
15 May 2024
Accepted 25 May 2024
Available online
15 June 2024

Keywords:

Globalization process,
creative idea,
value,
global citizen,
spirituality,
education,
morality,
independence.

ABSTRACT

The article discusses issues of correct understanding by young people of the content of various ideas, the growth of the level of ideological and political consciousness and ideological immunity, as well as the level of their socialization in the context of globalization. Issues related to the effective use of national and spiritual values in the processes of education and training, the formation of a sense of loyalty to customs and traditions among young people are covered.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss5/S-pp94-99>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Yoshlar tarbiyasida xalqimiz milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarining o'рни

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Globallashuv jarayoni,
bunyodkor g'oya,
qadriyat,
global fuqaro,
ma'naviyat,
tarbiya,
axloq,
mustaqillik.

Maqolada globallashuv darida yoshlarning turli-tuman g'oyalarning mazmunini to'g'ri anglab yetishlari, g'oyaviy-siyosiy ongi va mafkuraviy immuniteti darajasining o'sishi, ularning ijtimoiylashuvi darajasiga bog'liqligi masalalariga to'xtalib o'tiladi. Ta'lim va tarbiya jarayonlarida milliy va ma'naviy qadriyatlardan unumli foydalanish, yoshlar orasida urf-odat va an'analarga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish bilan bog'liq masalalar yoritib beriladi.

¹ Teacher, Kokand State Pedagogical Institute. E-mail: sh.shomurotov7707@gmail.com

Роль национальных обычаев, традиций и ценностей нашего народа в образовании молодежи

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

процесс глобализации,
творческая идея,
ценности,
гражданин мира,
духовность,
образование,
мораль,
независимость.

В статье рассматриваются вопросы правильного понимания молодежью содержания различных идей, роста уровня идейно-политического сознания и идеологического иммунитета, а также уровня ее социализации в условиях глобализации. Освещены вопросы, связанные с эффективным использованием национальных и духовных ценностей в процессах воспитания и обучения, формированием у молодежи чувства верности обычаям и традициям.

Ma'lumki, har qanday jamiyatda yoshlar qatlami muhim o'rin tutadi. Shunga ko'ra, har bir jamiyatning rivojlanib borishi ob'ektiv jarayon bo'lib, uni davom ettirish u o'z navbatida yangi avlodga zaruriyatni paydo qiladi. Yangi avlod esa, mavjud ishlab chiqaruvchi kuchning tarkibiy qismi va muayyan ishlab chiqarish munosabatlarini davom ettira olishga layoqatli bo'lishi lozim. Zero, yoshlar muammosini yana bir muhim tomoni shundaki, jamiyat va yoshlar tizimining markaziy elementi alohida olingan inson hisoblanadi.

Yoshlarning jamiyatda tutgan o'rni eng avvalo, jamiyat oldiga qo'yilgan vazifalar miqyosi va ko'lamidan kelib chiqadi. Bunday hol O'zbekiston yoshlariga ham xos. Mustaqillikka erishilgandan so'ng mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat barpo etish, fuqarolar jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat bosh strategik maqsad belgilandi. Bu yo'ldagi vazifalarni bajarishda yoshlar qatlamiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Keng qamrovli islohotlar jarayonida yoshlarning faol ishtirok etishlarini ta'minlash bo'yicha davlat va nodavlat muassasalari tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Shu bilan birga, yoshlar orasida olib boriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarda, ularda vayronkor g'oyaviy ta'sirlarga qarshi g'oyaviy immunitetni shakllantirishda, ularning sotsial-demografik, psixo-fiziologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga egadir.

Ayni paytda, mafkuraviy immunitetni yuksaltirish yo'lidagi muammolardan biri, yoshlarga doim ta'sir ko'rsatib turuvchi mavjud ijtimoiy muhitdagi ayrim holatlar bilan bog'liqdir. Xususan, afsus bilan bo'lsada, tan olish va ta'kidlash kerakki, ba'zan bozorlarda va savdo shahobchalari atrofida maktab yoshidagi bolalarning pornografik mazmundagi filmlar tushirilgan disklar bilan yashirinchalik savdo qilayotgani yoki bo'lmasa, maktab o'quvchilarining bir-birlari bilan "Internet kafelarda" soatlab fahsh, zo'rlik, qotillik, razillikni targ'ib qiluvchi tarmoq o'yinlarini o'ynab vaqt o'tkazayotganiga guvoh bo'lamiz.

Albatta, bunday holatlarga ba'zi ota-onalar tomonidan farzandlari ustidan nazoratni susaytirib yuborilgani, ta'lim muassasalarining bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish yuzasidan olib borayotgan ishlarining talab darajasida emasligi va boshqa qator omillar sabab bo'ladi. Biroq, nima bo'lganda ham, bu – ob'ektiv voqelik va u yoshlarimiz mafkuraviy immunitetini yuksaltirish yo'lidagi jiddiy to'siqlardan biridir.

Chunki, o'smir yoshlarda tengdoshlariga taqlid qilish, ulardan ibrat olish mayli kuchli bo'ladi. Yot va begona mafkuraviy xurujlar ta'siriga tushib qolgan yoshlar tengdoshlarini ham shunday ishlarga da'vat qilishi mumkin. Bu ham yoshlarimiz ongi-shuuriga nisbatan ichki mafkuraviy tahdidlarning bir ko'rinishidir.

Masalaning yana bir jihati ham borki, bu elektron o'yinlar orqali vahshiylikni targ'ib qilayotgan kompyuter zallar egalarining yosh avlod tarbiyasiga nisbatan mas'uliyatsizligi bilan izohlanadi. Chunki, o'yin o'ynash uchun "Internet kafe"ga har kuni deyarli o'sha-o'sha yigit-qizlar kelishadi va soatlab u yerda qolib ketishadi. Albatta, kompyuterlarning kuni bo'yi band bo'lishi kafe egasi bo'lgan "tadbirkor" uchun ayni muddao. Ammo, o'sha kishi yoki ayol farzandi tengi yoshlarning har kuni bebaho vaqtlarini behuda sarflab o'tirishlariga beparvo munosabatda bo'layotgani mafkuraviy profilaktika borasidagi yana bir muammodir. Albatta, biz kompyuter xizmat ko'rsatishga mas'ul bo'lgan hamma odamlarni mas'uliyatsizlikda ayblash fikridan yiroqmiz. Biroq, shunday kishilarning mavjudligini ham inkor etolmaymiz.

Yoshlarning ta'limdan bo'sh vaqtlarini ota-onalar, ustozlar va umuman yaqin kishilar tomonidan nazorat qilinishi, bu borada ularga to'g'ri yo'l-yo'riqlar ko'rsatilishi yoshlar mafkuraviy profilaktika jarayonidagi muhim vazifalardan biridir.

Darhaqiqat, xalqimiz, xususan, yoshlarimizda mafkuraviy immunitet milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarimiz, bir so'z bilan aytganda, mentalitetimiz asosida shakllanadi. Shu ma'noda, sabr-toqat va yaxshi niyat ham o'zbek xalqining umumiy mental qiyofasidagi muhim jihatlaridan sanaladi. Shuningdek, har qanday sharoitda ham yaxshi niyat qilib yashash, yomonlikning oqibatidan ham yaxshilik bo'lishiga ishonish tuyg'usi ham milliy tafakkurimizning original elementi hisoblanadi.

Zero, mafkuraviy ishlarimiz jarayonida ushbu insoniy fazilatni yoshlarimiz o'rtaida yanada kengroq va chuqurroq targ'ib etish muhim ahamiyatga egadir.

Ayni paytda, mafkuraviy tahdidlar hozirgi davrda global xarakterga ega bo'lgan ob'ektiv voqelikdir. Shu ma'noda, demokratik jamiyat qurish yo'lidan borayotgan davlatlarda ularga qarshi kurash muqarrar tus olib, bu jarayonda sub'ektiv omillar muhim o'rin tutadi. Shuningdek, milliy mafkura tizimidagi g'oyalar nafaqat yoshlar, balki mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bir shaxs, ijtimoiy guruh, qatlamning bu jarayondagi faolligi, jonbozligi orqali ta'sirchan amaliy kuchga aylanadi va yoshlarga doir siyosat har qanday davlatning ustuvor strategik masalasi hamdir.

Jamiyatimizni milliy qadriyatlar asosida, jumladan, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yanada kuchaytirishda oliy o'quv yurtlari oldiga juda katta va mas'uliyatli vazifalar qo'yilmoqda. Bizning mamlakatimizda demokratiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini mustahkamlash, yangi insonni kamol topshirishning muhim muammolari amalda hal qilinayotgan hozirgi bosqichda yoshlarning roli tobora ortib bormoqda. Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi yoshlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir.

Milliy qadriyatlarga sodiqlik – milliy g'oyaning tayanchidir. Mustaqillikka sadoqat hissini barchada barobar shakllantirish, fuqarolik tuyg'usini mustahkamlash, tarixiy qadriyatlarimizni e'zozlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat va ularni boyitish ko'nikmalarini shakllantirish: tarbiya, madaniyat, ma'rifat o'choqlari diqqat markazida turgani ijobiy holdir.

Jamiyatimizning asosiy maqsadi ham Vatanga, xalqiga, millatiga fidokor mustaqil fikrlaydigan, har bir masalani ongli ravishda mas'uliyat bilan hal qiladigan, izlanuvchan ma'naviyatli barkamol farzandlar o'stirish, ularni jismoniy ham ma'naviy-axloqiy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash va bilimli, ma'rifatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iborat. Demak, ana shunday iqtidorli talabalar, ma'naviyatli yoshlargina yurtimizning tayanchi bo'lishi va porloq kelajagini yaratishini mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki mamlakat ravnaqi, uning ertangi porloq kelajagini yaratadigan yoshlar qalbiga milliy qadriyatlar, xalqimizning boy tarixi va ma'naviy merosi an'alarini chuqur singdirib, ularni vatanparvarlik, fidoiylilik hamda umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash har bir o'qituvchi, har bir ota-ona qolaversa har bir fuqoraning burchi. Buning uchun imkoniyatlar yetarli, faqat har birimiz bu ma'suliyatni chuqur his etib, kuch-g'ayratimizni safarbar etishimiz lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish masalasi g'oyat dolzarb ahamiyatga ega. Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy me'rosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir. Shu boisdan ham o'z haq-huquqini taniyligan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, yon-atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil yondasha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlariga bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi dolzarb masalaga aylandi.

Insonlarning juda oz qismi o'z aql-idroki bilan yashaydi, qolgan aksariyat qismi birovga ergashish, taqlid qilish, o'zlashtirib olishga moyilligi bilan ajralib turadi. Bu ayniqsa keyingi paytlarda g'arbcha kiyinish, fikrlash, o'zaro munosobatlarida yoshlar o'rtasida keng yoyilayotgani bilan yaqqol ko'zga tashlanayapti. Milliy qadriyatlar va axloqni globallashuv iskanjasidan saqlab qolishda tarixiy tafakkurning o'rni kattadir. Xalqimiz boy va olis o'tmishga ega bo'lib, o'ziga xos boy ma'naviy madaniyat, qadriyatlar va axloq tizimini yaratgan, ularni bir necha yilda qo'ldan chiqarishni ijobiy hol deb bo'lmaydi. Milliylik bu eskilik sarqiti yoki qoloqlik belgisi emasligini anglash, buning uchun xalqimizning etnik va madaniyati tarixi, tarixiy tafakkuri milliy o'zlikni anglashda katta ahamiyatga ega. Bugungi bizni oldimizda turgan muhim vazifalardan biri yoshlar tarbiyasi bo'lib, ularda milliy ong, milliy g'ururni shakllantirish, milliy mafkuradan muhofaza quroli sifatida foydalanish lozimdir. Xalqimiz juda boy ma'naviy meros yaratgan, avloddan-avlodga yetib kelgan bu qadriyatlar, adolatli hakam vaqtning sinovidan o'tgan. Agar ulardan qisqa o'n-o'n besh yilda voz kechilsa juda katta ma'naviy yo'qotish yuz bergan bo'lar edi. Insonni jisman yo'qotadigan atom va issiqlik quvvatidan tashqari ichdan insoniylikni tag-tomiri bilan yo'qotib yuboradigan xatar, halokat ma'naviy tanazzuldir.

Millatning qiyofasini, o'zligini belgilaydigan, unga millat sifatida quvvat beradigan qadriyatlarni asrash, ularga suyanish kerak. Bugungi millatning ma'naviy sog'lomligi masalasi har doimgidan ko'proq e'tibor berishni talab qilayotir. Respublikamizning Birinchi Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganidek: Xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an'analari, urf-odatlari, tili va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg'unlashgan holda kelajakka ishonch

tuyg'usini odamlar qalbi va ongiga yetkazishi, ularni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashi, halollikni, mardlik va sabr-bardoshlilikni, adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalash yo'lida xizmat qilmog'i lozim.

Xulosa qilib, o'zbekning milliy xarakterini belgilaydigan juda ko'p xususiyatlar mavjud bo'lib, ular oilaga munosabat, ota-onaga hurmat, bolaga mehr, or-nomus, uyat, andisha, tug'ilgan yerga mehr, qo'ni-qo'shnichilik, va boshqalarda ko'rinadi. Donishmandlar axloqning birinchi asosi farzandlarning ota-onaga xurmatidir, deb bekorga aytishmagan. Bu bir oilaga hos bo'lgan vazifa emas, butun insoniyatga xos xususiyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998.
3. Karimov I.A. "Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" Toshkent. "Sharq yulduzi" 2009 yil №Howard M. America and the World. St. Louis: Washington University. The Annual Lewin Lecture, 5 April 1984. P.6.
4. Shomurotov, S. S. O. (2021). The Need for Formation of Knowledge on the Effective Use of Water Resources in Young People in the Process of Globalization. (in the Example of the Aral Sea). International Journal of Human Computing Studies, 3(2), 89-91.
5. SHOMUROTOV, S. S. O. (2021, April). FIRST STEPS FOR MODERNIZATION OF WATER FARMING IN THE REPUBLIC: ACHIEVEMENTS AND CHALLENGES. In Euro-Asia Conferences (Vol. 4, No. 1, pp. 152-155).
6. Shomurotov, S. S. O. (2021, February). Some Environmental Problems Related To Land And Water Resources In Uzbekistan. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 39-41).
7. SHOMUROTOV, S. S. O. Construction and Changes in Canals and Pumping Stations in Uzbekistan. JournalNX, 7(1), 262-266.
8. Шомуротов, Ш. (2021). Историческое значение реформ, осуществляемых в водной системе Узбекистана. Общество и инновации, 2(3/S), 458-465.
9. Шомуротов, Ш. (2021). Ўзбекистон сув хўжалиги тизимида амалга оширилган ислохотларнинг тарихий аҳамияти. Общество и инновации, 2(3/S), 458-465.
10. Shomurotov, S. S. O. (2022). O 'zbekistonda Suvdan Foydalanuvchilar Uyushmalarining Tashkil Qilinishi Va Faoliyatida Yuzaga Kelayotgan Muammolari. Miasto Przyszłości, 29, 216-220.
11. Shomurotov, S. S. O. (2022). Measures Taken to Develop the Irrigation System in the Country. Miasto Przyszłości, 29, 207-209.
12. Abduljalilova, M., & Solijonova, Z. (2023). DARS JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH-MATEMATIK TA'LIMNI YANGICHA TASHKIL QILISHNING ASOSI SIFATIDA. Conferencea, 90-93.
13. Abduljalilova, M. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QISH DARSLARIDA ANVAR OBIDJON IJODIY NA'MUNALARINI O 'RGANISHNING AMALIY AHAMIYATI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 2(22), 17-21.
14. Abduljalilova, M. (2023). THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF STUDYING THE CREATIVE EXAMPLES OF ANVAR OBIDJAN IN PRIMARY CLASS READING LESSONS. Science and innovation, 2(B11), 574-576.

15. Abduljalilova, M., & Zaxro, A. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA SAMARALI O 'QISH KO 'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(20), 16-19.
16. Abduljalilova, M. (2023). USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN SOLVING TEXT PROBLEMS. International journal of advanced research in education, technology and management, 2(12).
17. Ikramovna, I. S., & Abduxalilqizi, A. M. (2023). A Worldwide Picture Of Amir Temir's Image. Journal of Positive School Psychology, 1238-1243.
18. Shoirakhon, K. (2023). The Artistry of Alisher Navoi's work "Nazm Ul-Javohir". American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 403-408.
19. Shoirakhon, K. (2023). The Use of Rhyming Arts in Alisher Navoi's Work Nazm Ul Javohir. Journal of Advanced Zoology, 44.
20. Zohidova, D., & Xo'jayeva, S. (2024, February). "NAZM UL-JAVOHIR" RUBOIYLARINING QOFIYA XUSUSIYATLARI. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 5, pp. 96-102).
21. Shoirakhon, K. (2023). THE METRIC CHARACTERISTICS OF ALISHER NAVOI'S WORK «NAZM UL-JAVOHIR». Gospodarka i Innowacje., 42, 475-480.
22. Bakhodirovna, R. N. (2024). About Some Features of Authentic Text Materials in Teaching a Foreign Language. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 5(1), 45-49.
23. Rakhmanova, N. (2023). LANGUAGE AND CULTURE: INVESTIGATE THE CONNECTION AMONG LANGUAGE AND CULTURE, ANALYZING HOW LANGUAGE REFLECTS AND SHAPES SOCIAL STANDARDS, VALUES, AND PERSONALITIES. Talqin va tadqiqotlar, 1(31).
24. Isakova, Z. Z., & Rakhmonova, N. B. (2021). The expressing value attitude with the help of paralinguistic methods. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 1209-1213.
25. Abdulhamidov, S. (2023). CAUSATIVITY FROM THE POINT OF VIEW OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(23), 8-11.
26. Abdulhamidov, S. (2023). BASIC PRINCIPLES AND PROCEDURE FOR STUDYING CAUSATIVE CONSTRUCTIONS IN MODERN LINGUISTICS. Наука и технология в современном мире, 2(19), 19-22.
27. Xusnitdin o'g'li, S. A. (2023). ISSUES OF CREATING A LINGUISTIC IMAGE OF THE WORLD. Gospodarka i Innowacje., 37, 44-46.
28. Попова, Е. И. (2022). Эстетическая Функция Грамматических Средств Языка В Художественном Тексте. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(11), 290-295.
29. Попова, Е. И. (2023). РИТОРИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЯ. Gospodarka i Innowacje., 42, 332-336.
30. Popova, E. I. (2023). TECHNIQUES OF SEMANTIZATION OF RUSSIAN VOCABULARY IN A FOREIGN LANGUAGE AUDIENCE. Academia Science Repository, 4(03), 227-234.